“O‘zkimyosanoat” AJ va “Ammofos-Maxam” AJ “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining respublika bosqichi g‘oliblari qatoridan joy oldi

// 17 January 2025 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-va-ammofos-maxam-aj-gender-tenglik-faoli-m



Joriy yilning 16-yanvar kuni “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining respublika bosqichi g‘oliblarini taqdirlash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Marosimni Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbayeva qutlov so‘zi bilan ochib berdi.

“Gender tenglik faoli” milliy tanlovi Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha Respublika komissiyasi tashabbusi bilan har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinmoqda.Mazkur tanlovda ishtirok etish uchun 934 ta tashkilot va muassasalar tomonidan hujjatlar taqdim etildi. Ular tanlov komissiyasi tomonidan nizom talablari asosida baholanib, 10 ta nominatsiya bo‘yicha g‘oliblar aniqlandi.



Quvonarlisi “O‘zkimyosanoat” AJ “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol respublika darajasidagi davlat organi” – nominatsiyasida 3-o‘rinni qo‘lga kiritdi.



Jamiyatning tarmoq korxonasi “Ammofos-Maxam” AJ “Gender tenglikni ta’minlashda eng faol tuman davlat

organi” nominatsiyasida 1-o‘rinni egalladi.

Tanlov g‘oliblari esdalik sovg‘alari va diplomlar bilan taqdirlandi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati